yada ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanadigan ayollar sonini oshishiga yo‘naltirilgan besh yillik loyiha joriy qilingan edi. Hukumat tomonidan ajratiladigan grantlar fan va texnologiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan ayollarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Axborot texnologiyalari sohasida ishlovchi ayollar uchun yozgi maktablar tashkil qilish; tadqiqotlarni o‘tkazish uchun ularga stipendiyalar ajratish; texnik fanlarni o‘qitish tamoyillarini o‘zgartirish uchun majmuaviy gender yondashuvni joriy qilingan. Mazkur loyiha doirasida Vena texnologik universitetida “Ayollarning Internet-texnologiyalar kolleji” (Women’s Postgraduate College for Internet Technologies) dasturi ochilib, u kompyuter sohasida ayollarning muammosini bartaraf qilishga chaqirilgandi.

Norvegiya tajribasi ham ta’lim sohasida majmuaviy gender yondashuvini joriy qilishning yana bir namunasi hisoblanadi, u yerda Norvegiyaning janubiy qismida “qizlar va texnologiya” nomli loyiha amalga kiritildi, uning maqsadi ayollarni texnologik tarmoqlarga jalb qilishdan iboratdir. Mazkur loyihani to‘liq amalga oshirish jarayonida texnologik ixtisoslikni tanlayotgan qizlar soni yiliga 30%ga o‘sdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ayollarning ta’lim tarbiyasi bashariyat yutug‘i desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Dunyo kelajak avlodlari ular qo‘lida voyaga yetadi. Ilmli, diyonatli xotin-qizlarimiz farzandiga to‘g‘ri tarbiya berishi bilan millatlar kelajagini barpo etadi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, agar kishi o‘zi tarbiyalangan bo‘lmasa, farzandiga o‘zi o‘rnak bo‘lolmasa, aytgan gaplariga o‘zi amal qilmasa, u hech qanday natijaga erisha olmaydi. Muborak hadislarda Rasulullo s.a.v aytadilar: “Farzandlaringizga munosib onani ixtiyor qilinglar”,[1] deyilgani bejiz emas. Munosib ona bu ta’lim va tarbiyada ustuvor ayoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida.

(2). “Oilada bir nafar qiz o‘qib, oliy ma’lumotga ega bo‘lsa, xonadondagi muhit butunlay o‘zgaradi” – Prezident // https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/07/womens/

(3). O‘sha joyda.

(4). https://oliymahad.uz/22663

Mardanov Uktamjon Rustamovich (Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘naishi 1-bosqich magistranti; Mardanovuktamjon @gmayl.com)

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TERMINLAR LINGVOPOETIKASINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya*. Mazkur maqolada terminologik tizimning so‘nggi yillardagi taraqqiyoti, badiiy matnda terminlarning lingvopoetik aktuallashuvi muammolari, sohaviy terminlarning badiiy matnda uslubiy xoslanish xususiyatlarining tadqiq etilish masalasi atroflicha yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *terminologik tizimi, sohaviy terminlar, lingvistik xususiyatlar, ko‘p ma’noli terminlar, lingvokulturologik talqin, terminlarning lingvopoetik aktuallashuvi, uslubiy xoslanish, poetik-estetik maqsad, terminlarning uslubiy maqomi.*

Марданов Уктамжон Рустамович (Бухарский институт психологии и иностранных языков, кафедра узбекского языка и литературы, магистрант 1 курса; Мардановуктамджон. @gmail.com)

ИЗУЧЕНИЕ ЛИНГВОПОЭТИКИ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация*. В данной статье всесторонне освещается развитие терминологической системы за последние годы, проблемы лингвопоэтической актуализации терминов в художественных текстах, а также изучение стилистических особенностей профессиональных терминов в художественных текстах.*

Ключевые слова: *терминологическая система, профессиональные термины, языковые особенности, полисемичные термины, лингвокультурная интерпретация, лингвопоэтическая актуализация терминов, стилистическая адаптация, поэтико-эстетическое назначение, стилистический статус терминов.*

Mardanov Uktamjon Rustamovich (Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages. The department of Uzbek Language and Literature, 1st year master’s student; @gmayl.com)

THE STUDY OF LINGUOPOIETICS OF TERMS IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation. *This article comprehensively examines the recent development of the terminological system, the problems of linguopoetic actualization of terms in literary texts, and the issue of researching the stylistic characteristics of specialized terms in literary works.*

[1] https://oliymahad.uz/22663

***Keywords**: terminological system, specialized terms, linguistic features, polysemous terms, linguocultural interpretation, linguopoetic actualization of terms, stylistic features, poetic-aesthetic purpose, stylistic status of terms.*

Kirish (Introduction). Tilshunoslikning terminologik tizimida jamiyatda yuz bergan so‘nggi yillardagi iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, texnik-texnologik taraqqiyot natijalari, davlatlarning turli sohalardagi hamkorlik aloqalari, tezkor axborot almashinuvining yo‘lga qo‘yilganligini va turli tizimdagi tillarning o‘zaro aloqasi o‘laroq ko‘plab yangi terminlar hosil qilinganligini, o‘zga tillardan terminlar o‘zlashtirish jarayoni sezilarli darajada kuchayganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa sohaviy terminlar tadqiqi masalasini o‘rganishga qaratilgan lingvistik tadqiqotlarning yuzaga kelishiga turtki berdi, yangi izlanishlar uchun keng yo‘l ochdi, hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolarni belgilab berdi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev to‘g‘ri qayd etganlaridek, “Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada hayotimizga chetdan ko‘plab yangi tushuncha, so‘z va iboralar kirib kelmoqda. Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi”.[1]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Terminologiya va uning nazariy asoslari, ayrim soha terminlarining lingvistik xususiyatlari, terminlarni tartibga solish masalasi jahon tilshunosligida G.O.Vinokur, D.S.Lotte, A.A.Reformatskiy, O.S.Axmanova, V.P.Danilenko, A.V.Superanskaya va boshqa olimlar tomonidan u yoki bu darajada tadqiq etilgan.[2]

Bugungi kunda nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki boshqa tillar terminologik tizimida terminlar tadqiqiga doir yangicha yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqdqa.

Zamonaviy terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada jiddiy o‘rganish, terminlar yaratish va ularni qo‘llashning til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo‘yicha chuqurroq tadqiq qilish, yangi davr tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalar qatorida tilshunosligimizning barcha sathlarida, xususan, terminologiyaga xos xususiyatlarni yangi aspektda tadqiq qilish ko‘zga tashlandi. Jumladan, I.Pardayeva, N.Usmonov, Z.Isaqova, Z.Mirxoliqov, G‘.Ismailov, A.To‘raxodjayeva kabi tilshunoslarning nomzodlik ishlarida sohaviy terminologiyaning o‘ziga xos lisoniy xusussiyatlari o‘z aksini topgan.[3]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqola mazmunini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, differensial-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shu bilan birga, terminologiya sohasida hali yechimini kutayotgan masalalar ham yo‘q emas. Xususan, termin muammosi va uning uslubiy maqomi masalasiga oydinlik kiritish, sohaviy terminologiyaning lingvokulturologik talqinini yaratish, badiiy matnda terminlar-

---

[1]Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. “Халқ сўзи”, 2019 йил 22 октябрь.

[2]Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ, т. 5, сборник статей по языковедению, М., 1939, с. 3–54; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. М., 1961; Лотте Д.С. Как работать над терминологией. Основы и методы. М., 1968; Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминоэлементов. М., “Наука”, 1982; Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? Вопросы терминологии. М., 1961, с. 46–54; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2, М., “Советская энциклопедия”, 1969; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. М., “Наука”, 1977; Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. М., “Наука”, 1989.

[3]Пардаева И. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Филол. фан. номз.дисс. ... автореф., Тошкент, 1994; Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фан. номз.дисс. ...автореф., Тошкент, 1994; Исақова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика. Филол. фан. номз. дисс. ... автореф., Тошкент, 2010; Мирхолиқов З. Ўзбек тилида балиқ номларининг луғавий-маъновий ва грамматик хусусиятлари. Филол. фан. номз.дисс. ... автореф., Тошкент, 1990; Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. Филол. фан. номз. дисс. ... автореф., Тошкент, 2011; Тўрахожаева А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти. Филол. фан. номз.дисс. ... автореф., Тошкент, 2012.

ning lingvopoetik aktuallashuvi muammolarini yoritish, sohaviy terminlarning badiiy matnda uslubiy xoslanish xususiyatini tadqiq etish kabi masalalar shular jumlasidandir.

Tilshunoslikda terminlarning, odatda, bir ma'noli birliklar ekanligi ko'p ta'kidlanadi, ammo turli tillarda ko'p ma'noli terminlar ham uchrab turadi.[1] Ayniqsa, anatomiya, geografiya, musiqa, yog'ochsozlik, mineralogiya, botanika, tibbiyot, kimyo, xalq amaliy san'ati turlari va boshqa soha terminlarining nutqda ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi ko'p kuzatiladi.

G.Ernazarova "O'zbek tili mineralogiya terminlarining lingvistik tadqiqi" nomli dissertatsiyasining alohida bobini "Mineralogiya terminlarining lingvopoetik xususiyatlari"ga bag'ishlagan. İshda terminlarning badiiy matnda qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan funksional-uslubiy xususiyatlari, o'zbek tilida yaratilgan nazmiy va nasriy asarlarda individual-muallifiy metaforalar ko'p uchrashi, ularni tadqiq etish so'z san'atkorlarining nutqiy individualligini ochib berish bilan birga, metaforalarning kognitiv hamda lingvomadaniy birlik sifatidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi, mineralogiya terminlarining o'xshatishlarni hosil qilishi qayd etilgan. Umuman, mazkur bobda mineralogiya terminlarining badiiy matn tarkibidagi lingvopoetik qimmatini tadqiq etish, ularning o'ziga xos uslubiy-semantik xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga egaligi ochib berilgan.[2]

Ilmiy va badiiy uslublar o'rtasidagi hamkorlik, ayniqsa, badiiy matnda turli terminlarning qo'llanishi va bunda ularning badiiy-estetik qimmat kasb etishida yaqqol namoyon bo'ladi. Ana shunga ko'ra, tilshunoslar "ilmiy til unsurlarining, terminlarning poetik so'z san'atiga olib kirilishi mutlaqo tabiiyligiga, badiiy nutq o'z mohiyatiga muvofiq polistilistiklikligiga, unda benihoya xilma-xil lisoniy vositalar sinezlana olishi mumkin"ligiga e'tiborni qaratadilar.[3]

Shu o'rinda tilshunosligimizda so'nggi yillarda amalga oshirilgan ayrim tadqiqotlarni mustasno qilganda, turli soha terminlarining badiiy matndagi xususiyatlari lingvopoetik yondashuvda, shuningdek, matniy qurshov doirasida o'rganilmaganligini, ularning badiiy matnda namoyon bo'luvchi antropotsentrik, jumladan, lingvokulturologik, kognitiv xususiyatlari monografik aspektda tadqiq qilinmaganligini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbek tilshunosligida terminlarning badiiy matnda qo'llanish xususiyatlarini o'rganishga, dastlab, H.Shamsiddinov e'tibor qaratdi. Uning nomzodlik dissertatsiyasida she'riy tizimda terminlarning uslubiy vazifalari hamda terminlarda funksional-semantik sinonimlarning qo'llanish xususiyatlari o'rganilgan.[4]

Badiiy matnda qo'llangan terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlarini o'zbek tilshunosligida birinchi marta maxsus tadqiq qilgan

D.Jamoliddinova: "Leksik strukturadagi bir qancha birliklar, ularning o'zaro munosabatini talqin qilishda tilshunoslikda anchayin umumiy bir fikr shakllangan bo'lsa-da, terminlar masalasida o'zbek tilshunosligida tamoman bir yechimga kelingan emas. Shuning uchun terminologiyani, xususan, terminlarning badiiy matndagi lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlarini tavsiflash o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi",[5] deya juda o'rinli e'tirof etadi.

Olima o'zining doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi aniq va tabiiy fanlar hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar terminlarining, shuningdek, kasb-hunar leksikasining badiiy matnda muayyan poetik-estetik maqsadlarda qo'llanishi va matnning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilishini aniq misollar asosida ochib berdi.[6]

Terminlarining polisemantik xususiyati, ayniqsa, badiiy asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu jihat ularni lingvopoetik aspektda tadqiq etish lozimligini ko'rsatadi. Chunki termin ham oddiy so'z bo'lib, "tilga aloqador biror-bir hodisa unga begona emas".[7] Ularning badiiy matn tarkibidagi funksional xususiyatlarini o'rganish natijasida ularning boshqa leksik birliklar kabi uslubiy imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

---

[1] Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизуемой терминологии. Терминология и норма. М., 1972, с. 11.

[2] Эрназарова Г. Ўзбек тили минералогия терминларининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс., Қарши, 2022, 150-бет.

[3] Маҳмудов Н. Илмий матнда термин таносиби ва такомили. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2-сон, 8-бет.

[4] Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи. Автореф. дисс. …канд. филол. наук, Ташкент, 1984.

[5] Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан д-ри (DSc)… дисс. автореф., Тошкент, 2021, 71-бет.

[6] Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан д-ри (DSc)… дисс. автореф., Тошкент, 2021, 71-бет.

[7] Котелова Н.З. К вопросу о специфике термина. Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. М., "Наука", 1970, с. 124.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Badiiy uslubda so‘z qo‘llash imkoniyatlari keng, unda turli uslublarga xos, hatto ilmiy terminologiyaga oid birliklarning ham erkin ishlatilishiga yo‘l beradi. Tilshunoslikda turli soha terminlarining lingvopoetik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalar mavjudki, bu borada davr talablari asosida keng qamrovli izlanishlar olib borish oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizdan biridir.

Abdukodirova Yulduz Safaraliyevna (Navoiy davlat universiteti Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi tayanch doktoranti; e-mail: yulduzabdukodirova272@gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI PUL BIRLIKLARIGA OID MAQOLLARNING MUTANOSIBLIK DARAJASI

Annotatsiya. *Maqollar xalqning ko‘p asrlik tajribasini, dunyoqarashini, qadriyatlarini ifoda etuvchi muhim lingvokulturologik birliklar sanaladi. Ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarning muhim qismi bo‘lgan pul va uning birliklariga oid maqollar xalq mentalitetini tadqiq qilish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida pul birliklariga oid maqollarning semantik sathda o‘zaro mos yoki nomutanosib bo‘lishi tahlil qilinadi va tilshunoslarning fikrlari bilan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *semantik sath, to‘liq muvofiq bo‘lgan maqollar, qisman muvofiq bo‘lgan maqollar, umuman, mutanosib bo‘lmagan maqollar, universaliyalar, dinamik ekvivalentlik.*

СТЕПЕНЬ СОВМЕСТИМОСТИ ПОСЛОВИЦ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ДЕНЕЖНЫМ ЕДИНИЦАМ, В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Пословицы являются важными языковыми и культурными единицами, выражающими многовековой опыт, мировоззрение и ценности народа. В частности, ценным источником для исследования менталитета людей являются пословицы о деньгах и их единицах, которые являются важной частью экономических отношений. В данной статье на основе мнения лингвистов анализируется, совместимы или несовместимы на семантическом уровне пословицы, связанные с денежными единицами в английском и узбекском языках.*

Ключевые слова: *семантический уровень, полностью совместимые пословицы, частично совместимые пословицы, совершенно противоречивые пословицы, универсалии, динамическая эквивалентность.*

THE DEGREE OF CORRESPONDENCE OF PROVERBS ABOUT MONETARY UNITS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. *Proverbs are essential linguocultural units that express the old experiences through centuries, worldview, and values of the people. In particular, proverbs about money and its units, which are an important part of economic relations, are a valuable source for studying the mentality of the people. This article analyzes the semantic compatibility or incompatibility of proverbs about monetary units in English and Uzbek and relating to the opinions of linguists.*

Keywords: *semantic level, fully corresponding proverbs, partially corresponding proverbs, completely incompatible proverbs, universals, dynamic equivalence.*

Kirish (Introduction). Har bir xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari va qadriyatlari uning tilida, ayniqsa, maqollarida o‘z aksini topadi. Pul birligiga oid maqollar ham xalqning iqtisodiy hayoti, qadriyat tizimi va mentalitetini aks ettiruvchi muhim til birliklaridan hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida ushbu maqollarni aksiologik jihatdan o‘rganish ularning semantik mutanosiblik darajasini aniqlashga yordam beradi. Pul bilan bog‘liq maqollarning bir tilda mavjud bo‘lib, boshqa tilda ekvivalenti uchrashi tabiiy hodisadir. Chunki pul butun dunyo xalqlari uchun iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan universal tushunchadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Maqollarning semantik-struktur, g‘oyaviy va lingvokultrologik tadqiqi yuzasidan V.N.Teliya, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, V.P.Jukov, N.N. Amosova, E.V.Ivanova, J.Raymond, R.W.Ridout, W.Clifford, G.L.Apperson, W.Hazlitt kabi olimlar tadqiqot olib borgan. O‘zbek tilshunoslikgida Y.Rahmatov, B.Jo‘rayeva, R.U.Majidova, A.A.Nosirov, O.P. O‘ralova, B.M.Jurayeva, A.E.Mamatov kabi olimlarning ishlarida maqollar yoritilib tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metadologiyasi (Reasearch Methodology). Maqollar semantik nuqtayi nazardan uch guruhga bo‘linib tahlil qilinadi: to‘liq mutanosib, qisman mutanosib, umuman, mutanosib bo‘lmagan maqollar.